

**Internet tarmog'iga keng polosali telekommunikatsiya xizmatlari va
raqamli kabel televideniyesi xizmatlarini taqdim etish to'g'risida
OMMAVIY OFERTA**

«GALS TELECOM» mas'uliyati cheklangan jamiyati O'zbekiston Respublikasi, 100085, Sergeli tumani, Sergeli 8a mavzesi, 17-uy, 19-xonadon manzilida joylashgan bo'lib, Litsenziyalarga muvofiq xizmat ko'rsatadi:

- **30.01.2020 yildagi 208567-sonli** ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari;
- **17.09.2021 yildagi 208566-sonli** «raqamli va kabel televideniyesi» teleuzatmalarini tarqatish tarmoqlari, keyinchalik «Operator» deb nomlanadi, ushbu bilan quyidagiga muvofiq ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali bu ofertani qabul qilgan jismoniy shaxslarga Internet tarmog'iga keng polosali ulanish, raqamli va kabel televideniyesi xizmatlarini, keyinchalik «Xizmatlar» deb nomlanadi, taqdim etadi

Ushbu Ommaviy ofertada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

Abonent - Operator tomonidan belgilangan harakatlarni amalga oshirish orqali ushbu Ofertani qabul qiladigan va Operator xizmatlaridan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz faqat shaxsiy maqsadlarda foydalanadigan, ushbu maqsadlar uchun noyob (yagona) autentifikatsiya ma'lumotlarini ajratib turadigan jismoniy shaxs;

Abonent uskunolari, oxirgi (terminal) uskunalar - Abonentning turar-joy binosida joylashgan aloqa liniyalari (kompyuter, tarmoq kabeli va boshqalar) orqali signallarni uzatish va/yoki qabul qilish uchun texnik vosita;

Ro'yxatdan o'tish (Avtorizatsiya) - Abonent tomonidan kiritilgan autentifikatsiya ma'lumotlarini Operator serverida tahlil qilish jarayoni, uning natijalariga ko'ra Abonent xizmatlarni olish yoki Shaxsiy kabinetiga kirish huquqiga ega ekanligi aniqlanadi.

Autentifikatsiya ma'lumotlari - Shaxsiy kabinetga kirish va/yoki tegishli xizmatni olish uchun foydalaniladigan Abonentning noyob foydalanuvchi ismi (login) va paroli (password).

Shaxsiy hisobvarag'i - bu Abonentning avans to'lovlari va xizmatlar uchun to'lov sifatida ushbu to'lovlardan ushlab qolingani (hisobdan chiqarilgan) pul mablag'lari miqdorini qayd etadigan hisobvarag'i. Mablag'larning kelib tushishi va ularning sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olish.

Shaxsiy hisobvaraqq balans - ma'lum bir vaqtda ikki pul mablag'lari summalarini o'rtasidagi farq (muayyan sanaga balansdagi haqiqiy pul mablag'larining qoldig'i)

Shaxsiy hisobvaraqq pul mablag'larini kiritish - Abonentning Operatorning joriy hisobvarag'iga Shaxsiy hisobvaraqq yoki Login ko'rsatilgan holda avans to'lovi. To'lov Operator kassasiga naqd pul mablag'larini kiritish yoki Abonent uchun mavjud bo'lgan har qanday usul yordamida naqdsiz mablag'larni O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida kiritish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Uy (tarqatish) tarmog'i - ma'lumotlar yoki kabel televideniyesi tarmog'ining uyga kirishidan (uy tarmog'ining magistral yoki sub-magistral tarmoq bilan ulanish joyi) provayderning tarmoqlanadigan qurilmasigacha bo'lgan qismi.

- a) Ulanish nuqtasi – bitta abonent liniyasini ulash uchun xizmat qiladigan uy tarmog'ining elementi.
- b) Abonent liniyasi - tarmoqning ulanish nuqtasidan abonent qurilmasi (televizor, router, kompyuter)gacha bo'lgan qismi, u bitta qurilmani ulash uchun mo'ljallangan.
- c) Hisob-kitob davri – boshlanishi hisobdan chiqarishning individual sanasi bo'lgan davr, uning davomiyligi ma'lum bir sana to'g'ri keladigan oydagi kalendar kunlar soniga to'g'ri keladi.

«Operator»ning javobgarlik zonasi (hududi) – Operator egalik qiladigan va boshqaradigan telekommunikatsiya texnik vositalari va kanallari.

Internet – bu turli xil jismoniy shaxslar va tashkilotlarga tegishli bo'lgan kompyuter tarmoqlari va axborot resurslarining global ixtiyoriy, mustaqil birlashmasi;

Shaxsiy ma'lumotlar - ma'lum bir Abonentga tegishli yoki uni aniqlash imkoniyatini beradigan elektron, qog'oz va (yoki) boshqa moddiy tashuvchida qayd etilgan ma'lumotlar. Abonentlar to'g'risidagi ma'lumotlarga quyidagilar kiradi: Abonentning F.I.Sh., Abonentning haqiqiy manzili, Abonent uskunalarini o'rnatish manzili, taxallus, abonent raqamlari va Abonentni va uning abonent uskunalarini to'g'ri aniqlashga imkon beradigan boshqa ma'lumotlar. Bunday ma'lumotlarning ro'yxati Operator tomonidan tasdiqlanadi va Operator saytida joylashtiriladi.

Shaxsiy kabinet – Operator xizmatlarining rasmiy saytidagi olingan Xizmatlar hajmi va Shaxsiy hisobvaraqlarning joriy holati to'g'risida statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan veb-sahifa. Bunday holda, Shaxsiy kabinetda ko'rsatilgan ma'lumotlar ma'lumotnoma bo'lib, Operatorning moliyaviy tizimlaridagi ma'lumotlardan farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu sahifada Abonent muayyan xizmatlarga obuna bo'lishi, ulardan voz kechishi mumkin.

Xizmatning rasmiy sayti - Operatorning www.gals.uz veb-manzilida joylashgan telekommunikatsiya tarmog'ining axborot resursi.

Operator ofisi – Operatorning Toshkent shahridagi Bosh ofisi va uning O'zbekiston Respublikasi viloyatlaridagi filiallari ofislari.

Hamkorlar - Operator bilan tuzilgan shartnomalar, shu jumladan Operatorning ish jarayonlariga xizmat ko'rsatish maqsadida har qanday xizmatlarni sifatli taqdim etish yoki ilgari surish maqsadida Operator tomonidan jalb qilingan shaxslar.

Operator vakili - ishonchnoma yoki Operator bilan tuzilgan tegishli shartnoma asosida quyidagi vakolatlarga ega yuridik yoki jismoniy shaxs:

- telekommunikatsiya xizmatlarini tarqatish va Operator nomidan Internetga keng polosali ulanish yoki kabel televideniyesi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnomalar tuzish.
- Abonentlarga Operator xizmatlarini ko'rsatish (to'lovlarni qabul qilish va boshqalar).

Internet xizmatidan foydalanish qoidalar – bu tarmoq resurslaridan foydalanish tartibi va ushbu Ommaviy ofertaning ajralmas qismi: uning imzolanishi taraflarning xizmatlardan foydalanish Qoidalariga to'liq roziligini anglatadi (2-ilova).

«Shartnoma/Ro'yxatdan o'tish blankasi» - Abonent imzolash orqali ushbu Ommaviy ofertaga qo'shiladigan va Abonent to'g'risidagi ma'lumotlar, Abonent raqami to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik beradigan blanka (1-ilova).

1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. Ushbu Ommaviy oferta Internet tarmog'idagi Operator rasmiy saytining www.gals.uz manzilida joylashtirilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va uning chaqirib olinishi to'g'risida rasmiy xabar joylashtirilgunga qadar amal qiladi.
- 1.2. Abonent tomonidan ro'yxatdan o'tkazish blankasini imzolash fakti Abonentning ushbu Ommaviy oferta shartlarini va uning Ommaviy ofertaning ajralmas qismini tashkil etuvchi barcha ilovalarini to'liq va shartsiz qabul qilishi hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasi).
- 1.3. Ushbu Ommaviy oferta va unga ilovalar Internet tarmog'i, raqamli va kabel televideniyesiga keng polosali ulanish xizmatlarini taqdim etish Shartnomasi bo'lib, jismoniy shaxslar uchun oldindan to'lov shartlari asosida, «Shartnoma», «Ushbu Shartnoma» yoki «Abonent shartnomasi» va Oferta atamalari bir xil ma'noga ega bo'lib, bundan keyin matnda «Ushbu Oferta» deb yuritiladi.
Ushbu Ommaviy oferta va unga ilovalar O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri tomonidan 2020-yil 30-iyundagi 208-mh-sonli buyrug'i (Adliya vazirligi 30.06.2020-yildagi 3275-son) bilan tasdiqlangan Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalar asosida ishlab chiqilgan.
- 1.4. Ushbu shartnomani tuzgan Operator Abonentning Internet tarmog'ida ishlash uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishi haqidagi prezumpsiyaga (taxminga) amal qiladi.

2. SHARTNOMA MAVZUSI

- 2.1. Operator Abonentga telekommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan Internet tarmog'iga kirishni, raqamli yoki kabel televideniyesi xizmatlarini taqdim etadi, Abonent esa ushbu xizmatlar uchun pul to'laydi. Operator Abonentga Xizmat ko'rsatish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.
- 2.2. Ushbu Oferta shartlari bo'yicha xizmatlar ko'rsatish muddatiga Operator Abonentga bunday Xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan uskunani 2-ilovada ko'rsatilgan soz holatda vaqtinchalik bepul foydalanish uchun beradi. Ushbu Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Abonent Operatorni uskunani tabiiy eskirishni hisobga olgan holda qabul qilgan holatida qaytaradi.
- 2.3. Operator xizmatlari Abonent tomonidan individual foydalanish uchun taqdim etiladi, u teledasturlarni qayta uzatmaslik va Operator uskunasiidan foyda olish maqsadida foydalanmaslik majburiyatini oladi.

- 2.4. Agar abonentda Operator xizmatlaridan to'liq foydalanish yoki Xizmatga ulanish uchun mos keladigan o'z uskunasi, routeri, modemiga ega bo'lsa, 2.2-band kuchini yo'qotadi.

3. XIZMATLARNI TAQDIM ETISH TARTIBI

- 3.1. Abonent va Operator o'rtasida telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnoma/Ro'yxatdan o'tkazish blankasi Operatorning ofislarida yoki ulanish joyida Ommaviy oferta shartlarida to'ldiriladi. Ushbu ofertaning aksepti, ya'ni uning barcha shartlarini istisnosiz va/yoki cheklovsiz qabul qilish - bu Abonent tomonidan Ro'yxatdan o'tish blankini imzolash, shuningdek ushbu ofertada ko'rsatilgan shartlarni bajarish bo'yicha harakatlarni, shu jumladan Abonent sifatida ro'yxatdan o'tish, ko'rsatilgan tartibda Xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish, shuningdek, shaxsning Xizmatlardan foydalanish niyatini tasdiqlovchi boshqa shunga o'xshash harakatlarni amalga oshirishdir.
- 3.2. Abonent shartnomasi Operator tomonidan aksept olingandan va Abonent Operatorni hisobga olish dasturida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin tuzilgan hisoblanadi.
- 3.3. Abonent tomonidan Shartnoma/Ro'yxatdan o'tkazish blankasi imzolanishi Abonentning ushbu Ommaviy oferta shartlarini va uning Ommaviy ofertaning ajralmas qismini tashkil etuvchi barcha ilovalarini to'liq va shartsiz qabul qilishi hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 370-moddasi).
- 3.4. Xizmatni ulash uchun Operator tomonidan zarur harakatlar tugagandan so'ng, Abonent 5 (besh) ish kuni ichida Xizmatni faollashtirish orqali har qanday qulay usulda to'lovni amalga oshirishi kerak.
- 3.5. Abonent tomonidan xizmatdan foydalanishning haqiqiy boshlanish sanasi Operator tomonidan Operator tarmog'ida o'rnatilgan hisobga olish dasturi asosida belgilanadi.
- 3.6. Abonentni xizmatga ulash vaqti, xizmatni taqdim etishning boshlanishi Abonent tarif uchun birinchi muvaffaqiyatli to'lash vaqtidir.
- 3.7. Abonentni Xizmatga ulash muddati Shartnoma/Ro'yxatdan o'tish blankasi imzolangan kundan boshlab 5 (besh) ish kunidan oshmaydi.
- 3.8. Abonentni aniqlash (identifikatsiya) va Xizmatlar va Shaxsiy kabinetga kirish Abonentning shaxsiy Autentifikatsiya ma'lumotlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Abonent birinchi muvaffaqiyatli avtorizatsiyada (ro'yxatdan o'tishda) dastlabki parolni (password) o'zgartirishni o'z zimmasiga oladi
- 3.9. Abonentning shaxsiy Autentifikatsiya ma'lumotlari Operator ofisida Abonentga beriladi. Abonentga berilgan Login o'zgarmaydi. Abonent birinchi muvaffaqiyatli avtorizatsiya vaqtida dastlabki parolni (password) o'zgartirishni o'z zimmasiga oladi.
- 3.10. Operator quyidagi holatlarda aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnoma tuzishni rad etishga haqlidir:
- 1) Operator tarmog'iga kirishni taqdim etishning texnik imkoniyati bo'lmaganda;
 - 2) Abonent so'rayotgan Tarmoq xizmatlarini ko'rsatishning texnik imkoniyati bo'lmaganda;
 - 3) Operator Abonent uskunalarining O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bo'yicha sertifikatlanmaganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lganda;
 - 4) Operator potentsial Abonentning Operator tomonidan ilgari ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzdorligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lganda.
- 3.11. Xizmat vazifalarini bajarganligi sababli Operator xodimlariga ma'lum bo'lgan Abonentlar to'g'risidagi ma'lumotlar maxfiy ma'lumotlar hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq himoya qilinadi. Abonentlar to'g'risidagi ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:
- Abonent-jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi;
 - Abonentning manzili yoki abonent uskunasi o'rnatish manzili, taxallus, abonent raqamlari va Abonentni va uning abonent uskunasi aniqlash tarzida aniqlaydigan boshqa ma'lumotlar.

4. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

4.1. Abonent quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

4.1.1. Ushbu Ommaviy oferta shartlariga rioya qilish;

4.1.2. Abonent ma'lumotlarini (F.I.Sh., doimiy yoki vaqtincha yashash joyi, pasport seriyasi va raqami) identifikatsiyalash uchun u Operator xodimiga amaldagi pasportini taqdim etishi shart. Ushbu ma'lumotlar

o'zgartirilgan taqdirda, bunday o'zgartirishlar kuchga kirgan kundan boshlab 30 kun ichida ularni Operatorga shaxsan taqdim etish.

4.1.3. Xizmatlardan foydalanishni boshlashdan oldin dolzarb Xizmatlar ro'yxati, tarif rejalari, xizmatlar uchun tariflar va boshqa qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishib chiqish.

4.1.4. Kerakli avans to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish orqali Shaxsiy hisobvaraqlarning ijobiy balansini saqlash;

4.1.5. Operator uskunasi bilan foydalanish qoidalariga ishlab chiqaruvchining amaldagi foydalanish yo'riqnomasiga muvofiq rioya qilish, uni tegishli tartibda saqlash va agar kerak bo'lsa, uni o'z hisobidan joriy va kapital ta'mirlash

4.1.6. Boshqa shaxslarning televidion qabul qiluvchilarini yetkazib beriladigan signalga ulanish holatlariga yo'l qo'ymaslik;

4.1.7. Abonent liniyasining holatini kuzatib borish, o'zining hisobidan uni tiklash va ta'mirlashni amalga oshirish;

4.1.8. Vujudga kelgan nosozliklar, shu jumladan, televizor va Internet signalining yo'qolishi to'g'risida Operatorga o'z vaqtida xabar berish;

4.1.9. Kabel va boshqa uskunalarning (tarqatish shitiga, uyning tomiga va hokazo) o'g'irlanishi va shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun begona shaxslarni kirgizmaslik;

4.1.10. Abonentning iltimosiga binoan ta'mirlash ishlarini bajarish va Abonentning ushbu shartnoma shartlariga muvofiqligini tekshirish uchun Operator vakillariga, agar ularda amal qilish muddati tugamagan fotosurati va muhri bo'lgan shaxsiy guvohnomasi bo'lsa, uskunaga va uning barcha joylariga kirishga ruxsat berish;

4.1.11. Abonent Xizmatlardan foydalanish uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Ommaviy oferta bo'yicha Xizmatdan tijorat maqsadlarida foydalanishga ruxsat berilmaydi. Taraflar ushbu Ommaviy oferta bo'yicha taqdim etiladigan Xizmatlardan foydalanish shaxsiy ekanligini va faqat ko'rsatilgan turar-joy binosi bilan cheklanganligini alohida ta'kidladilar.

4.1.12. Xizmatlarni ulash bo'yicha texnik ishlar tugaganidan keyin besh ish kuni ichida xizmatlarni faollashtirish.

4.1.13. Taqdim etilayotgan rasmiy saytda Xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning o'zgarishlarini vaqti-vaqti bilan tekshirish.

4.1.14. Xizmatlardan noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik, shuningdek Operatorga va/yoki u bilan bog'liq bo'lgan uchinchi shaxslarga zarar yetkazadigan harakatlar qilmaslik, shu jumladan dasturiy ta'minotni Abonent qurilmasidan/Foydalanuvchi uskunasi bilan tarqatmaslik yoki tarqatishga yordamlashmaslik, IP-manzillarni soxtalashtirmaslik, Operator tarmog'i, uskunasi, Operator dasturiy ta'minoti va/yoki u bilan bog'liq bo'lgan uchinchi shaxslarning me'yoriy ishlashiga to'sqinlik qiladigan harakatlar qilmaslik, axborot texnologiyalari sohasida noqonuniy va /yoki qonunga qarshi, xususan, Operator tarmog'ida resurslar va xizmatlardan ruxsatsiz va noqonuniy foydalanish xatti-harakatlarini qilmaslik.

4.1.15. Abonent qurilmasidan/Foydalanuvchi uskunasi bilan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablarini, Operatorning huquq va manfaatlarini buzuvchi, shu jumladan imidj, moliyaviy va boshqa zararlarga olib keladigan noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik. Abonent Operator tomonidan taqdim etiladigan Xizmatlar litsenziyalangan faoliyat turi ekanligini va ularni taqdim etish tartibini buzganlik uchun, shu jumladan statsionar tarmoqlarga kirish uchun GSM shlyuzlarini o'rnatish, IP telefoniya va boshqa faoliyatning uzilishiga olib kelishini tan oladi, Operatorning zarar ko'rishiga olib keladigan Abonent qurilmasi/Foydalanuvchi uskunasi va/yoki aloqa vositalarining funktsionalligi uchun Abonent belgilangan javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, shuningdek Operatorga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

4.1.16. Axborot resurslari himoyasini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish, konstitutsiyaviy tuzumni zo'ravonlik bilan o'zgartirishga chaqiruvchi, urushni, zo'ravonlik va pornografiyani targ'ib qilish, diniy va milliy adovatni qo'zg'atuvchi, inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tarqatilishi taqiqlangan boshqa ma'lumotlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik.

4.1.17. Abonent O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham o'z zimmasiga olishi mumkin.

4.2. Abonent quyidagi huquqlarga ega:

- 4.2.1. Ko'rsatilgan xizmatlardan foydalanish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganda Operatorning maslahat va texnik yordamidan foydalanish;
- 4.2.2. Ushbu Ommaviy oferta bilan belgilangan tartibda da'vo qilish.
- 4.2.3. Tarif/tarif rejasini, Operator tomonidan belgilangan tartibda ko'rsatiladigan xizmatlar turlarini uning texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zgartirish.
- 4.2.4. Shaxsiy kabinet (Shaxsiy kabinetga kirish nazarda tutilgan xizmat turlariga nisbatan) va/yoki Operator orqali Shaxsiy hisobvaraqdagi xizmatlarning ishlatilgan hajmi va pul mablag'lari qoldig'i to'g'risida ma'lumot olish.
- 4.2.5. Abonent O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

4.3. Operator o'z zimmasiga oladi:

- 4.3.1. Abonentga O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy hujjatlari talablarini hisobga olgan holda ushbu Ommaviy ofertada bayon etilgan shartlarga muvofiq xizmatlar ko'rsatish.
- 4.3.2. Abonentning avans to'lovlarini o'z vaqtida uning Shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazish.
- 4.3.3. Abonentga kechayu kunduz 71-202-96-66 telefon raqamiga qo'ng'iroq qilib, texnik yordam xizmatidan telefon maslahatlarini olish imkoniyatini taqdim etish. Maslahatlar doirasi Xizmatlarni taqdim etish bilan bog'liq aniq masalalar bilan cheklangan.
- 4.3.4. Ommaviy oferta amal qilishi vaqtida Abonentga Shaxsiy kabinetga kirish imkoniyatini berish.
- 4.3.5. Abonent tomonidan Xizmatdan foydalanish tartibi va u tomonidan tuzilgan Ommaviy oferta bilan bog'liq boshqa shartlar to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash uchun umumiy qabul qilingan texnik va tashkiliy choralarni ko'rish.
- 4.3.6. Abonentga Operatorning Xizmat ko'rsatish zonasida Xizmatlar ko'rsatish.
- 4.3.7. Abonentga Xizmatlarni ko'rsatish jarayonida aniqlangan kamchiliklarini bartaraf etish choralarini ko'rish.
- 4.3.8. Abonentning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun zarur tashkiliy chora-tadbirlarni ko'rish va Abonent to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga rioya qilish.
- 4.3.9. O'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 10 kun oldin rasmiy saytga ma'lumotlarni joylashtirish orqali Abonentni Tariflar va xizmatlar narxлари ro'yxatidagi o'zgartirishlar to'g'risida xabardor qilish.
- 4.3.10. Abonentlarga xizmat ko'rsatish, xizmat ko'rsatish shartlarining o'zgarishi va ularning qiymati, shuningdek boshqa zarur ma'lumotlar bilan bog'liq rasmiy xabarlarini o'zining rasmiy saytida e'lon qilish.
- 4.3.11. Abonentga rejalashtirilgan texnik ishlarni bajarish to'g'risida Operatorning saytida ish boshlangan sana va vaqt va ularning davomiyligi ko'rsatilgan holda, ular boshlanishidan kamida 24 (yigirma to'rt) soat oldin xabar berish.
- 4.3.12. Uy tarmog'iga xizmat ko'rsatish, aynan uning tarkibiy qismlarini ta'mirlash, almashtirish, sozlash va profilaktika ishlarini bajarish;
- 4.3.13. Telefon orqali va Operator ofisida nosozliklarni bartaraf etish uchun Abonentning arizalarini qabul qilish va yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari bunga to'sqinlik qilmasa, ariza kelib tushgan kundan boshlab 72 soat ichida kelib tushgan arizalarni bajarish.

4.4. Operator quyidagi huquqlarga ega:

Operator oferta va / yoki uning Ilovalari shartlarini o'zgartirishga, shu jumladan amaldagi tariflarni, tizimni, shartlarni, aloqa Xizmatlarini to'lash shakllari va muddatlarini o'zgartirishga, ofertaga yangi Ilovalarni kiritishga, Abonentni xizmatning rasmiy saytida e'lon joylashtirish orqali o'zgartirishlar kuchga kirgunga qadar kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin xabardor qilishga haqlidir.

- Xizmatning rasmiy saytida e'lonni joylashtirish fakti, albatta, Operator tomonidan Abonentni xabardor qilish majburiyatini lozim darajada bajarganligi hisoblanadi.
- Abonent xizmatning rasmiy saytida o'zgartirishlar mavjudligini muntazam tekshirish uchun javobgardir. Ofertaning joriy qoidalari va unga Ilovalarning o'zgarganligi to'g'risida xabar berilganidan 10 (o'n) kalendar kundan keyin xizmatlardan foydalanishni davom ettirish ularga so'zsiz rozilik sifatida qaraladi.

- 4.4.1. Abonent dastlabki to'lovni 100% oldindan to'lamaguncha yoki xizmatlar uchun oylik Abonent to'lovini to'lamaguncha xizmat ko'rsatishni rad etish;

4.4.2. Agar Abonentdan olingan zarur hujjatlarda noto'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lsa, Abonentga ulanish va xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarishni bir tomonlama rad etish. Abonentning Operatorga nisbatan etik va axloqiy me'yorlarni buzishi (haqorat qilish).

4.4.3. Abonentga quyidagi hollarda rad etishni tegishli asoslab bergan holda xizmat ko'rsatishni rad etish:

- xizmat ko'rsatish davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatiga, odamlarning salomatligi va xavfsizligiga tahdid solishi mumkin;
- har qanday texnik, jismoniy, topografik yoki boshqa tabiiy to'siqlar tufayli Xizmat ko'rsatish mumkin emas.
- 4.4.4. Quyidagi hollarda Abonentni tarmoqdan uzishni / vaqtincha uzishni amalga oshirish:
- boshqa Abonentlarni obro'sizlantiradigan axborot tarmog'i orqali tarqatish, talab qilinmagan materiallarni tarmoq orqali keng tarqatish, tarmoq axloq qoidalarini buzish, viruslarning tarqatish, IP-manzilni soxtalashtirish;
- Abonent tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan shartlar va talablarning buzilishi;
- rejalashtirilgan texnik va boshqa turdagi ishlarni bajarish, Operator tarmog'ini modernizatsiya qilish. Bundada, Abonent ushbu Ommaviy oferta shartlarida nazarda tutilgan xizmatlar uchun to'lovdan ozod qilinmaydi.

4.4.5. Quyidagi holatlarda Internet xizmatini to'xtatish, Abonent tomonidan dasturiy ta'minotdan foydalanishni bloklash yoki taqiqlash:

- bunday dasturiy ta'minotning ishlatish avariya vaziyatlarga, xavfsizlik tizimining yoki ushbu Ommaviy oferta shartlarining buzilishiga olib keladi yoki olib kelishi mumkin;
- elektron pochta ochiq retranslyatori (open SMTP-relay);
- uchinchi shaxslarga Tarmoqda ruxsatsiz ishlashga imkon beradigan vositalar (ochiq proksi-serverlar va boshqalar);
- mahalliy tarmoqlarning keng ommaga eshittirish manzillari;
- Obuna avtorizatsiyasi yetarli bo'lmagan yoki uni bekor qilish imkoniyati bo'lmagan jo'natmaning elektron ro'yxatlari.

4.4.6. Ommaviy Oferta bir tomonlama tartibda bekor qilingan hollarda Abonentga xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish:

- Abonent tomonidan ushbu Ommaviy oferta va unga illovalar shartlarining buzilishi;
- Operator tarmog'i ishining buzilishiga olib kelgan Abonentning har qanday harakati;
- Abonent tomonidan ushbu ofertaga 2-ildoda ko'rsatilgan xizmatlardan foydalanish Qoidalarini buzish;
- olingan xizmatlardan noqonuniy yoki tijorat maqsadlarida foydalanish;
- uy sharoitidan tashqarida olingan xizmatlardan foydalanganda;
- Abonentning tarmoq resurslariga ruxsatsiz kirishga qaratilgan harakatlari;
- Abonent tomonidan axborot texnologiyalari sohasidagi firibgarlikni aniqlash.

4.4.7. 4.4.6-bandda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha Ommaviy Oferta bekor qilingan taqdirda, Abonentning shaxsiy hisobvarag'ida qolgan pul mablag'lari Taraflar tomonidan Abonentning xizmatlardan foydalanish shartlarini buzganligi uchun jarima sifatida tan olinadi va Abonentga qaytarilmaydi.

4.4.8. Tarqatilishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lgan har qanday axborotni uzatishni rad etish.

4.4.9. Operator tomonidan shartnoma bo'yicha qarz to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlangan taqdirda xizmat ko'rsatishni cheklash yoki Ommaviy ofertani bekor qilish.

4.4.10. Uskunani o'rnatishning texnik yoki boshqa imkoniyat bo'lmagan holatlarida o'z xizmatlarini ko'rsatishni rad etish.

4.4.11. Abonentning aybi bilan yetkazilgan har qanday zararni qoplashni talab qilish.

4.4.12. Rejalashtirilgan texnik ishlarni va boshqa turdagi ishlarni bajarish, Operator tarmog'ini modernizatsiya qilish

4.4.13. Operator O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

5. XIZMATLAR NARXI VA TO'LOV TARTIBI

5.1. Abonent o'z hisobidan Abonent liniyasini (ulanish nuqtasi va Abonent uskunalari ulash uchun ishlatiladigan kabel va butlovchi qismlar) ta'minlaydi, uchinchi shaxslarning huquqlariga yuklanmagan faqat o'ziga tegishli materiallardan foydalanadi.

5.2. Ulanish uchun to'lov Abonent uskunalari o'rnatish va sozlash xarajatlarini, shuningdek Operator tomonidan Abonent materiallaridan uy tarmog'iga bunday uskunalarni ulash bo'yicha bajariladigan montaj ishlarini o'z ichiga oladi. Ulanish uchun to'lov muayyan shartlarga bog'liq va Operator saytida ko'rsatilgan.

5.3. Ulangandan so'ng, Abonent uskunalari sozlash, shuningdek Abonentning aybi bilan yuzaga kelgan texnik nosozliklarni bartaraf etish Operator tariflari bo'yicha qo'shimcha haq evaziga amalga oshiriladi.

5.4. Xizmatlardan foydalanishning hisob-kitob davri uchun Abonent to'lovi Abonent tomonidan tanlangan tarif uchun 100% miqdorida pul mablag'larini yechib olish sanasigacha oldindan to'lov shaklida to'lanadi va Operator tomonidan hisob-kitob davri uchun bir marta hisobdan chiqariladi.

5.5. Abonent ulanganda tariflarni tanlaydi, ularning amaldagi qiymati Operator saytida ko'rsatilgan.

5.6. Ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent to'lovi – xizmatlarning hajmi va davomiyligiga bog'liq bo'lmagan oyiga xizmatlarning belgilangan narxi olinadi. Abonent to'lovi Hisob-kitob davrining birinchi kunida olinadi. Davr tugashidan oldin Abonentning tashabbusi bilan xizmatlar ko'rsatilishi to'xtatilgan taqdirda, qayta hisoblab chiqilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

5.7. Abonentning aybi bilan xizmatlarni taqdim etish to'xtatilgan taqdirda, Operator Abonent to'lovining amal qilish muddatini tegishli davrga uzaytiradi.

5.8. Hisob-kitob davrini hisoblash uchun individual hisobdan chiqarish sanasi ulanish kunida belgilanadi. Xizmatlarni taqdim etish to'xtatilganda, shu jumladan Xizmatlar o'z vaqtida to'lanmaganligi sababli, hisobdan chiqarishning individual sanasi xizmatlar to'langanidan keyin qayta ulanish sanasiga o'tkaziladi. Kabel televideniyesida hisobdan chiqarishning individual sanasi oyning birinchi kuni bo'lib, o'zgarishsiz qoladi. Boshqa sanalarga ulangan yoki qayta ulangan taqdirda, qolgan davr uchun abonent to'lovining qiymati qayta hisoblab chiqiladi!

5.9. Xizmatlar milliy valyutada to'lanadi. Xizmatlarni Operator ofislarida va Abonent uchun mavjud bo'lgan har qanday usulda to'lash mumkin. Bank bo'limlari orqali to'lov amalga oshirilgan taqdirda, Abonent to'lov kvitansiyasini saqlab qo'yishi va to'lovni hisobga o'tkazish uchun Operatorga taqdim etishi shart. Operator Abonentga to'lov tafsilotlari bilan Operatorning joriy hisobvarag'iga tushgan bank o'tkazmalarini o'z vaqtida qabul qilish uchun javobgar emas, bu esa Abonentni va to'lov amalga oshirilgan shartnomani to'g'ri aniqlashga imkon bermaydi.

5.10. Operator tomonidan Abonentga ko'rsatilgan xizmatlar, agar Abonent asosli yozma da'vo qilmasa, hisob-kitob davrining oxirgi kunida tegishli ravishda ko'rsatilgan va qabul qilingan hisoblanadi. Amalga oshirilgan montaj ishlari, agar Abonent asosli yozma da'vo qilmasa, Abonent xizmatga ulanganidan keyin 3 kun o'tgach, tegishli ravishda bajarilgan va qabul qilingan deb hisoblanadi.

6. OPERATORNING JAVOBGARLIGI

6.1. Operator amaldagi qonunchilikka muvofiq Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun javobgardir.

6.2. Operator amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan Abonentning shaxsiy ma'lumotlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish tartibini buzganlik uchun javobgardir.

6.3. Operator quyidagilar javobgar emas:

- eshittirish tashkilotlarining harakatlari, qayta uzatiladigan televizion kanallarning mazmuni va dasturlarning translyatsiya rejimining o'zgarishi uchun;
- Operatorga tegishli bo'lmagan nosozliklar uchun, shu jumladan. magistral liniyalarda elektr quvvati yo'qligi sababli signal berilishning to'xtashi;
- Operatorning uskuna va dasturiy ta'minot bilan bog'liq bo'lmagan uzatish tarmog'ining har qanday buzilishi uchun;
- Abonent tomonidan o'zining Abonentlik uskunalari ishlatish qoidalarini buzganligi, shuningdek uchinchi shaxslarning harakati natijasida, xususan, ruxsatsiz pochta almashinuvi, virus hujumlari va boshqalar natijasida yetkazilgan har qanday zarar;
- uskunalar, televizion qabul qilgichlari va abonent liniyasining ishlamay qolishi, shu jumladan abonent yoki uchinchi tomon qurilmalarining tarmoqqa noqonuniy ulanishi, me'yoriy ish sharoitlariga rioya qilmaslik (masalan, tarmoqdagi kuchlanish va harorat rejimi), shuningdek,

taqdim etilayotgan signalning sifatiga ta'sir qiladigan radiotelefonlar, raqamlarni avtomatik aniqlash moslamalari va boshqa elektr asboblardan foydalanish holatlarida;

- Abonentga texnik sabablarga ko'ra va fors-major holatlari bo'yicha 600 (olti yuz) daqiqadan kam davom etadigan xizmatlar ko'rsatmaslik muddati bo'lgan hollarda;
- tarmoqning ishlashi va rivojlanishini ta'minlash zarurati tufayli uskunalarni almashtirish bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etishda to'liq yoki qisman uzilishlar uchun;
- xizmatdan foydalanish yoki foydalana olmaslik natijasida Abonent tomonidan yetkazilgan bevosita yoki bilvosita zarar, yo'qotilgan foyda uchun, shu jumladan ma'lumotlarni uzatishdagi xatolar, o'tkazib yuborishlar, ishdagi uzilishlar, funksiyalarning o'zgarishi, nuqsonlar, ishdagi kechikishlar va boshqalar uchun;
- shahar va boshqa umumiy foydalanishdagi aloqa tarmoqlarining sifati, shuningdek Operatorning javobgarligi doirasidan tashqarida bo'lgan sabablarga ko'ra bevosita yoki bilvosita yuzaga keladigan xizmatlar sifatining yomonlashishi va/yoki uzilishlari uchun.
- Operator Operatoridan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuzaga kelgan sifatsiz yoki o'z vaqtida taqdim etilmagan Xizmatlar tufayli yuzaga kelgan yo'qotilgan foyda, bilvosita yo'qotishlar uchun Abonent oldida javobgar bo'lmaydi.

6.4. Xizmatlardan foydalanish to'xtatilganda, Operator Abonentning xizmatlardan foydalanish huquqidan mahrum etilganligi va bunday ogohlantirish yoki uning yo'qligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar to'g'risida biron bir uchinchi tomonni xabardor qilish yoki xabardor qilmaslik uchun javobgar bo'lmaydi.

7. ABONENTNING JAVOBGARLIGI

7.1. Abonent quyidagilar uchun javobgar:

- amaldagi qonunchilikka muvofiq o'z majburiyatlarini bajarganlik uchun.
- Xizmatlardan foydalangan holda qilingan barcha noqonuniy harakatlar hamda ularning oqibatlari uchun.
- maxfiylikni saqlash va o'zining Autentifikatsiya ma'lumotlarini uchinchi shaxslardan saqlash, shuningdek Autentifikatsiya ma'lumotlarini oshkor qilish va/yoki ruxsatsiz foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar uchun.
- Abonent liniyasi va kommutatsiya nuqtalarini yotqizish joylariga kirishni ta'minlagani uchun

7.2. Abonent Xizmatdan foydalangan holda olingan materiallar, tovarlar va xizmatlardan foydalanish bilan bog'liq to'liq javobgarlik va xatarlarni o'z zimmasiga oladi.

7.3. Abonent Xizmatlardan foydalangan holda Abonent tomonidan uzatiladigan ma'lumotlarning mazmuni, ishonchliligi va qonuniyligi uchun mustaqil ravishda javobgardir.

7.4. Abonent O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda javob beradi.

8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI VA NIZOLAR

8.1. Ommaviy ofertani bekor qilish taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

8.2. Taraflar o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar, agar buning sababi yengib bo'lmaydigan kuch holatlari bo'lsa, ularga noqulay ob-havo sharoiti, yong'inlar, baxtsiz hodisalar, eshittiruvchidan (shu jumladan sun'iy yo'ldoshdan) signal darajasining yo'qligi yoki pasayishi kiradi. Shu bilan birga, majburiyatlarni bajarish muddati boshqa tarafga yetkazilgan zararni qoplamasdan, bunday holatlarning amal qilish vaqtiga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

8.3. Agar Operator zarar ko'rgan yengib bo'lmaydigan kuch holatlari ketma-ket 30 kundan ortiq davom etsa, u tegishli ma'lumotlarni Operatorning ofisida va saytida joylashtirish orqali Ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni rad etishga haqli.

9. NIZOLARNI HAL QILISH

9.1. Ommaviy ofertani amalga oshirish bilan bog'liq nizolar yuzaga kelgan taqdirda, Taraflar ularni sudgacha (da'vo) tartibida hal qilish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradilar. Qonun hujjatlariga muvofiq, har ikki taraf tomonidan qilingan sud xarajatlari ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan qondirilgan da'volar miqdoriga mutanosib ravishda to'lanadi.

9.2. Agar nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etilmasa, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda da'vo joyi bo'yicha vakolatli sudda hal qilinishi lozim.

10. OFERTANING AMAL QILISH MUDDATI, UNING SHARTLARINI O'ZGARTIRISH YOKI BEKOR QILISH TARTIBI

10.1. Shartnomalar, agar mavjud bo'lsa, Ommaviy oferta tuzilgunga qadar yuzaga kelgan taraflarning munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi.

10.2. Ushbu oferta muddatsizdir, va uning barcha shartlari taraflardan biri ushbu Ofertada belgilangan tartibda uni bekor qilish istagini bildirmaguncha amal qiladi.

10.3. Abonent Operatorning ofisiga shartnomani bekor qilish to'g'risida yozma ariza berish orqali Abonent arizasida ko'rsatilgan bekor qilish sanasidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin Ommaviy ofertani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

10.4. Abonentga pul mablag'larini qaytarish faqat Operatorni bank rekvizitlari ko'rsatilgan holda bekor qilinishidan 10 (o'n) kun oldin xabardor qilgan hollarda amalga oshiriladi va qayta hisoblash uning plastik kartasiga yoki bank hisobvarag'iga O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida 30 kun ichida o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

11. BOSHQA SHARTLAR

11.1. Operator Abonent to'g'risidagi axborotni tegishli tashkilotlarga (huquqni muhofaza qiluvchi organlarga), muassasalarga quyidagi hollarda taqdim etish huquqiga ega:

- pudratchi tashkilotlar yordamida Abonentni xizmatlarga ulashni va/yoki Abonentga keyingi texnik xizmat ko'rsatishni tashkil qilishda;
- Abonentning domen nomlarini ro'yxatdan o'tkazishda;
- amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

11.2. Mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan barcha masalalarda Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi fuqarolik qonunchiligiga amal qiladilar.

Matnning oxiri.

**Internet xizmatidan foydalanish
QOIDALARI**

1. Ushbu hujjat Ommaviy ofertaga ilova bo'lib, Internet xizmatidan foydalanishda Abonent uchun majburiy bo'lgan qoidalarni belgilaydi. Qoidalar tarmoq resurslaridan foydalanish tartibiga nisbatan qo'llaniladi. Bu yerda va undan keyin tarmoq so'zi Internet tarmog'ini va undan mavjud bo'lgan boshqa tarmoqlarni anglatadi.
2. Tarmoq - bu turli xil odamlar va tashkilotlarga tegishli bo'lgan kompyuter tarmoqlari va axborot resurslarining global birlashmasi. Internetdan foydalanish bo'yicha yagona, umumiy majburiy xalqaro qoidalar (qonunlar) to'plami o'rnatilmagan. Biroq, O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan «Ma'lumotlarni uzatish tarmog'iga, shu jumladan Internetga xizmatlar ko'rsatish» qoidalar va Internetda ishlashning umume'tirof etilgan me'yorlari mavjud bo'lib, ular tarmoqning har bir foydalanuvchisi faoliyati boshqa foydalanuvchilarning ishiga xalaqit bermasligiga qaratilgan.
3. Internetda ishlashning umumiy qabul qilingan me'yorlari ta'sirining asosiy tamoyili quyidagi qoidadir:
 - har qanday Internet resurslardan foydalanish qoidalar (pochta qutisidan server va aloqa kanalgacha) ushbu resurslar egalari tomonidan va faqat ular tomonidan belgilanadi. Tarmoqdagi har qanday axborot yoki texnik resurs egasi ushbu resurs uchun undan foydalanish qoidalarini o'zi belgilashi mumkin. Resurslardan foydalanish qoidalar yoki ularga havolalar ushbu resurslar egalari yoki ma'murlari tomonidan bunday resurslarga ulanish nuqtasida e'lon qilinadi va ushbu resurslarning barcha foydalanuvchilari uchun majburiydir. Abonent resursdan foydalanish qoidalariga rioya qilishi yoki darhol undan foydalanishdan bosh tortishi shart. Ushbu qoidaga muvofiq, Abonentning boshqa tarmoqlar, serverlar, axborot resurslari, matbuot anjumanlari, jo'natma ro'yxatlari va boshqalar egalardan tegishli resurslardan foydalanish qoidalar buzilganligini isbotlovchi shikoyatlarga sabab bo'ladigan har qanday harakatlari qabul qilinishi mumkin emas va ushbu Qoidalarning buzilishi hisoblanadi.
4. Xizmatdan foydalanishda Abonent bajarishi kerak:
 - 4.1. Operator bilan tuzilgan shartnomaning barcha shartlarini bajarish;
 - 4.2. Davlat va boshqa qonun bilan himoyalangan sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni uzatish uchun Internet tarmog'idan foydalanishga yo'l qo'ymaslik;
 - 4.3. Internet tarmog'i orqali amaldagi konstitutsiyaviy tuzumni, O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini zo'ravonlik yo'li bilan o'zgartirishga da'vat etuvchi, urush va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi ma'lumotlarni tarqatmaslik;
 - 4.4. Internet tarmog'i orqali O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi, alohida shaxslar yoki bir guruh shaxslarning ma'naviy haqoratiga sabab bo'ladigan ma'lumotlarni tarqatmaslik;
 - 4.5. Agar qonunchilikka zid bo'lsa, tijorat (yoki notijorat) maqsadlarida tarqatish uchun Internetdan olingan materiallardan foydalanmaslik;
 - 4.6. Autentifikatsiya ma'lumotlarini boshqa shaxslarga o'tkazmaslik va ularning maxfiyligini ta'minlash;
 - 4.7. Kompyuter viruslari yoki tarmoq uchun zararli bo'lgan boshqa tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan ma'lumot yoki dasturiy ta'minotni nashr etmaslik yoki uzatmaslik;
 - 4.8. Operatorning ma'lumotlar bazalariga ruxsatsiz kirishga urinmaslik, Operator dasturiy ta'minotini o'zgartirmaslik;
 - 4.9. Shartnoma bo'yicha huquqlarni uchinchi shaxslarga bermaslik;
 - 4.10. Uzatilayotgan va olingan ma'lumotlar bilan O'zbekiston Respublikasiga iqtisodiy, siyosiy va boshqa zarar yetkazmaslik, pornografiya mahsulotlari va davlatga putur yetkazuvchi va obro'sizlantiruvchi axborotni tarqatish uchun kanal va aloqa vositalaridan foydalanmaslik;
 - 4.11. Tarkibi mahalliy yoki xalqaro qonunlarga zid bo'lgan har qanday ma'lumotni Internet tarmog'iga yubormaslik;
 - 4.12. Qabul qiluvchiga keraksiz bo'lgan taqiqlangan ma'lumotlarni tarqatish uchun Internet tarmog'iga va boshqa tarmoqlarga taqdim etilgan ruxsatdan foydalanmaslik. Xususan, quyidagi harakatlar bajarilishi mumkin emas:

- Oldindan kelishilmagan elektron xatlarni ommaviy jo'natish. Ommaviy jo'natmalar deganda, bir nechta oluvchilarga jo'natma va bitta oluvchiga ko'plab jo'natmalar tushuniladi. Elektron xatlar deganda elektron pochta xabarlar, ICQ va boshqa shunga o'xshash shaxsiy ma'lumot almashish vositalari tushuniladi;
- Bir sahifadan ko'proq hajmli yoki kiritilgan fayllarni o'z ichiga olgan elektron xatlarni kelishilmasdan jo'natish;
- Reklama, tijorat yoki tashviqot xarakteridagi elektron xatlarni, shuningdek qo'pol va haqoratli iboralar va jummalarni o'z ichiga olgan xatlarni kelishilmasdan jo'natish;
- Qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladigan boshqa harakatlarni sodir etmaslik.

Berilgan uskunaning saqlanishiga qo'yiladigan talablar.

1. Ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatish davrda Operator Abonentga Internet tarmog'iga ulanish uchun zarur bo'lgan, yaroqli holatdagi uskunani vaqtinchalik bepul foydalanishga topshiradi. Ushbu Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Abonent uskunani tabiiy eskirishini hisobga olgan holda, uni qabul qilgan holatda Operatorga qaytaradi.
2. Operator uskunani Abonentga Uskunani qabul qilish-topshirish Dalolatnomasiga muvofiq topshiradi.
3. Abonent uskunasi Operatorning mulki bo'lib qoladi. Abonent undan ehtiyotkorlik bilan va belgilangan maqsadda, faqat ushbu Shartnomani bajarish maqsadida foydalanishi, uning saqlanishini ta'minlashi shart, Operator bilan kelishilmagan holda uni uchinchi shaxslarga bermaslik, boshqa manzilga ko'chirmaslik majburiyatini oladi.
4. Abonent Operatorning o'ziga berilgan uskunaning saqlanishi uchun to'liq moddiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.
5. Agar Abonentning aybi bilan uskuna shikastlangan yoki yo'qolgan bo'lsa, u Operatorga shartnoma tuzish vaqtida kelishilgan uning qiymatini qoplaydi.
6. Shartnoma bekor qilingandan so'ng, Abonent nima sababdan bo'lishidan qat'i nazar, uskunani ish holatida va to'liq to'plamda Operator ofisiga o'chirilgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kun ichida yetkazib berishi kerak. Uskunani qaytarish uskunani qaytarish to'g'risida qabul qilish-topshirish Dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Matnning oxiri.